


7.1-01-01/6-9
21.11.22.

Tasdiqlayman
O‘zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi direktori




A. Burxanov

2022-yil “ ”

Tasdiqlayman
O‘zbekiston Respublikasi
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza
qilish davlat qo‘mitasi raisi




N. Oblomuradov

2022-yil “ ”

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasida
“Ochiq, shaffof va hisobdor qo‘mita” loyihasini amalga oshirishga qaratilgan
CHORA-TADBIRLAR REJASI
(Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-avgustdagi 12/2-330-son topshirig‘i ilovasining 1.2-bandiga)


t.r.	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Davlat ekologiya qo‘mitasi ma’lumotlar ochiqligi prezumpsiyasini joriy etish, unga muvofiq, qonunchilik hujjatlari bilan cheklanmagan ma’lumotlarni tizimlashtirish.	1. Ijtimoiy ahamiyatga molik, korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiq byudjet va elektron davlat xizmatlari to‘g‘risidagi ochiq ma’lumotlarni alohida bo‘limda joylashtirishning texnik imkoniyatini yaratish. 2. Yaratilgan bo‘limda ma’lumotlarni joylashtirish.	2022-yil 30-noyabr	Moliya boshqarma (Murodov) Ekologik axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va multimediyaga markazi (Abdullaev) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi (Urunov) Matbuot xizmati (Do‘stmurodov)

t.r.	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.	<p>Davlat ekologiya qo'mitasi jamoatchilik va ommaviy-axborot vositalari bilan aloqador bo'limi tegishli Qo'mitaning eng muhim masalalari haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, shuningdek boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan manbuot anjumanlari, brifinglar, media turlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda ravishda axborot taqdim etib borish.</p>	<p>1.AOKda o'tkaziladigan brifinglar ro'yxatini shakllantirish; 2.Davlat ekologiya qo'mitasi faoliyatiga oid ma'lumotlarni jamoatchilikka yetkazish choralarni ko'rish.</p>	<p>2022-yil 30-noyabr har chorak</p>	<p>Matbuot xizmati (Do'stmurodov) Qo'mita tarkibiy bo'linma rahbarlari, Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari</p>
3.	<p>Davlat ekologiya qo'mitasi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladigan ma'lumotlarni yig'ish va quyidagi mavzudagi ma'lumotlarni jamoatchilikka tanishtirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> -ochiq ma'lumotlar shaklida byudjet hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning tushumlari va xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar; -Davlat xaridlari bo'yicha sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar; -jismoniy va yuridik shaxslar vakillari tomonidan yuborilgan murojaatlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar; -tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi, ijrosi, shu jumladan ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari to'g'risida ma'lumotlar; 	<p>1.Davlat ekologiya qo'mitasining tegishli boshqarma va bo'limlari mas'ul xodimlari bilan birgalikda ma'lumotlarni tayyorlash va rasmiy veb-saytda joylashtirish; 2.Rasmiy veb-saytda joylashtirilishi majburiy bo'lgan axborotlarni yangilab borish.</p>	<p>har chorak</p> <p>doimiy</p>	<p>Matbuot xizmati (Do'stmurodov)</p> <p>Moliya boshqarma (Murodov)</p> <p>Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (Temirov)</p> <p>Binolardan foydalanish va kapital qurilish direksiyasi (Boboev)</p>


t.r.	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	<p>-Davlat ekologiya qo'mitasi tasarrufidagi xizmat avtotransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>-Davlat ekologiya qo'mitasining tasdiqlangan yarim yillik va yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno) to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>-o'tkazilgan tahlillar va jamoatchilik so'rovlari, shu jumladan onlayn so'rovnoma va uning natijalari;</p> <p>-keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilishi rejalashtirilgan seminar, trening, davra suhbat, muhokama, press-konferensiya va boshqa tadbirlar.</p>			<p>Ishlar boshqarmasi (Hazratqulov)</p> <p>Axborot-tahlil guruhi (Begiev)</p> <p>Matbuot xizmati (Do'stmurodov)</p>
4.	<p>Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni kuchaytirish.</p>	<p>1.Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlaridan jamoat birlashmalari va tadbirkorlik sub'ektlarining doimiy axborot olish tizimi va muloqotni yo'lga qo'yish;</p> <p>2.Amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha axborotlarni rasmiy veb-saytda joylashtirib borish.</p>	<p>doimiy</p> <p>doimiy</p>	<p>Matbuot xizmati (Do'stmurodov)</p> <p>Axborot-tahlil guruhi (Begiev)</p> <p>Ekologik axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va multimediya markazi (Abdullaev)</p> <p>Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari</p>
5.	<p>Mansabdor shaxslarning xizmat safari va chet eldan kelgan mehmonlarni qabul qilish harajatlari</p>	<p>Mansabdor shaxslarning xizmat safari va chet eldan kelgan mehmonlarni qabul qilish</p>	<p>har chorak</p>	<p>Moliya boshqarmasi (Murodov)</p>

t.r.	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	(xizmat safari va tashrif maqsadi, kunlik, transport va turar joy) ochiqligini ta'minlash.	xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish hamda Ochiq ma'lumotlar portali va rasmiy veb-saytda e'lon qilib borish.		Xalqaro hamkorlik va loyihalar boshqarmasi (Talipov) Matbuot xizmati (Do'stmurodov)
6.	Davlat ekologiya qo'mitasi faoliyatiga oid hisobotni ochiqlash.	1.Davlat ekologiya qo'mitasi tegishli boshqarma va bo'limlar mas'ul xodimlari bilan birgalikda ma'lumotlarni tayyorlash va rasmiy veb-saytda joylashtirish; 2.Rasmiy veb-saytda joylashtirilgan axborotlarni yangilab borish.	har chorak doimiy	Axborot-tahlil guruhi (Begiev) Matbuot xizmati (Do'stmurodov) Qo'mita tarkibiy bo'linma rahbarlari
7.	Davlat ekologiya qo'mitasida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan tarkibiy bo'linmalarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari va tegishli komissiya a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash.	1.Davlat ekologiya qo'mitasi tegishli boshqarma va bo'limlari mas'ul xodimlari bilan birgalikda ma'lumotlarni tayyorlash va rasmiy veb-saytda joylashtirish; 2.Rasmiy veb-saytda joylashtirilgan axborotlarni yangilab borish.	har chorak doimiy	Ekologik axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va multimediya markazi (Abdullaev) Matbuot xizmati (Do'stmurodov)
8.	Davlat ekologiya qo'mitasiga ishga qabul qilish jarayoni ochiq va shaffof tizim asosida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, mavjud bo'sh o'rinlari haqida ma'lumotlardan fuqarolarni xabardor qilish.	1.Qo'mitada bo'sh o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy ravishda rasmiy veb-saytga va Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining vacancy.uz saytiga berib borish; 2.Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasida tanlovlarning test sinovlari orqali amalga oshirish. 3.Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda o'tkaziladigan sinov tadbirlarini YouTube internet kanali orqali real vaqt rejimida kuzatishni imkoniyatini yo'lga qo'yish.	har chorak doimiy har chorak	Kadrlar bo'limi (Ashirova) Matbuot xizmati (Do'stmurodov) Ekologik axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va multimediya markazi (Abdullaev)


t.r.	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
9.	Davlat ekologiya qo'mitasida ochiqlikni ta'minlash borasida jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarini joriy etish.	1.Ekologiya sohasiga tegishli masalalarni muhokama qilish maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish (<i>onlayn-so'rovlar, bloglar, forumlar, onlayn-chat</i>) joriy etish; 2.Jamoatchilik fikrini o'rganish natijalarini e'lon qilish.	doimiy tadbir o'tkazilgandan so'ng 3 kun ichida	Matbuot xizmati (Do'stmurodov)
10.	Ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash.	1.Davlat ekologiya qo'mitasida ochiqlikka oid qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar ijrosini tahlil qilish. 2.Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Qo'mita rahbariyatiga takliflar kiritish. 3.Rasmiy veb-saytda va ochiq ma'lumotlar portalida joylashtirilishi majburiy bo'lgan axborotlarni yangilab borish.	har chorak har chorak har chorak	Matbuot xizmati (Do'stmurodov) Mas'ul boshqarma va bo'lim rahbarlari



(Temurov)



(Aylurova)



(Belev)



(Yuznov)


(Xayitov)


(Xayitov)


(Abdurova)


(Boboev)


(Djetymporov)